



KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

Xaydaraliyev Javohir Jahongir o'g'li

(TAQU)

javohirxaydaraliyev293@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, afzalliklari va inson huquqlari bilan bog'liq jihatlarini yoritadi. Konstitutsiyaning yangi tahriri, Prezident farmonlari va qarorlari orqali fuqarolarning huquqlari va erkinliklari amalda qanday himoyalaniishi ko'rsatib berilgan. Maqolada shuningdek, Konstitutsiyaning milliy qadriyatlar, demokratik tamoyillar va jamiyat rivojlanishidagi ahamiyati ham tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Konstitutsiya, inson huquqlari, farmoni, erkinlik, tenglik, ijtimoiy himoya, ta'lim, tibbiy xizmat, so'z va fikr erkinligi

Abstract: This article highlights the idea, purpose, and advantages of the Constitution of the Republic of Uzbekistan, focusing on the protection of human rights. It examines how the new edition of the Constitution and Presidential decrees ensure the practical implementation of citizens' rights and freedoms. The article also analyzes the Constitution's role in preserving national values, democratic principles, and promoting societal development.

Keywords: Constitution, human rights, decree, freedom, equality, social protection, education, medical care, freedom of speech and thought

Аннотация: Данная статья освещает идею, цель, преимущества и аспекты защиты прав человека в Конституции Республики Узбекистан. Рассмотрено, как новые редакции Конституции и указы Президента обеспечивают реализацию прав и свобод граждан на практике. Также проанализировано значение Конституции для национальных ценностей, демократических принципов и развития общества.

Ключевые слова: Конституция, права человека, указ, свобода, равенство, социальная защита, образование, медицинское обслуживание, свобода слова и мысли

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining g'oyasi, maqsadi, ruhi - har bir qoidasi inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, asrlar mobaynida shakllangan demokratik qadriyatlar, milliy davlatchilik, bir necha ming yillardan buyon avloddan avlodga meros bo'lib kelayotgan o'zbekona va sharqona davlatni idora etish hamda xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'alarini o'zida to'la mujassamlashtirgan. Prezidentimizning "Hammamizni tarbiyalagan, voyaga yetkazgan - shu xalq. Barchamizga tuz-nasiba bergan ham - shu xalq. Bizga ishonch bildirgan, rahbar qilib saylagan ham aynan shu xalq. Shunday ekan, biz birinchi navbatda kim bilan muloqot qilishimiz kerak - odamlarimiz bilan. Kim bilan bamaslahat ish tutishimiz kerak - avvalo xalqimiz bilan. Shunda xalqimiz bizdan rozi bo'ladi. Xalq rozi bo'lsa, ishimizda unum va baraka bo'ladi. Xalq bizdan rozi bo'lsa,

Yaratgan ham bizdan rozi bo'ladilar", degan fikrlari xalq bilan bamaslahat siyosat olib borish an'analari davom etayotganligining amaliy isbotidir. Yangi O'zbekiston Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi milliy qadriyatlarimizni adolatli ijtimoiy jamiyat, inson qadir qimmatini va intellektual huquqlarini himoya qiladigan va qo'llab quvvatlaydigan jamiyat qurish yo'llarini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi insonlar uchun bir qancha afzalliklari bor.

Jumladan:

1. Inson huquqlari va erkinliklarini kafolatlaydi;
2. Tenglik tamoyilini ta'minlaydi;
3. Ijtimoiy himoyani kafolatlaydi;
4. Ta'lim va tibbiy xizmat olish huquqi;
5. So'z va fikr erkinligi kabi insonlar uchun kerakli afzalliklari bor.

Konstitutsiyamizning ushbu bandlarini ifodalovchi Prezidentimizning bir qancha qaror va farmonlari mavjud, jumladan:

1. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida farmon — 2023-yil 8-mayda qabul qilingan. Bu farmon bilan yangi tahrirdagi Konstitutsiya yuridik kuchga ega deb e'lon qilindi va davlat organlari, sud hamda huquqni muhofaza qiluvchi idoralar yangi Konstitutsiyani to'g'ridan to'g'ri va so'zsiz tatbiq qilinadigan bo'ldi.

2. Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan ayrim hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida farmon — 2023-yil 7-noyabrda imzolangan. Bu farmon bilan Prezidentning 10 ta oldingi farmoni va 4 ta qaroriga oid o'zgartirishlar kiritilgan.

Ushbu prezident qarorlar konstitutsiyamizning inson huquq va erkinliklarini ta'minlanishida o'z hissanini yanada oshirishi uchun belgilangan.

Asosiy qism. O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi huquqiy tizimimizda ijobiy yangilanishlar, fuqarolarga ko'pdan ko'p yangiliklar va ularning huquqlarini izchil himoya qiladigan, shu jumladan, bir necha yillardan buyon dolzarb muammolardan biri hisoblanib kelayotgan shaxsning intellektual huquqiy daxlsizligini ta'minlaydi (Yangilangan Konstitutsiyaning 31-moddasi). Bugungi yangilanayotgan O'zbekistonda bu moddaning konstitutsiyaga kiritilishi insonlarning yashash erkinligining kafolatlaridan biri desak adashmagan bo'lamiz. Taniqli fizik olim Albert Eynshteyn "Konstitutsiyaning kuchi butunlay har bir fuqaroning uni himoya qilishga qat'iyat bilan intilishidadir. Konstitutsiyaviy huquqlar har bir fuqaro ushbu himoyaga hissa qo'shishni o'z burchi deb bilsagina himoya qilinadi", deb Konstitutsiya kuchi haqida o'z fikrlarini bildirgan. Amerikalik huquqshunos, AQSh Oliy sudining uzoq yillar a'zosi bo'lgan Oliver Vendell Xolms "Konstitutsiyalar nazariyalarni qo'llab-quvvatlash uchun emas, balki amaliy va moddiy huquqlarni saqlash uchun mo'ljallangan, deb ta'kidlaydi. Amerikalik huquqshunos va siyosatchi Edvard Mur Kennedi esa "Konstitutsiya nafaqat biz bilan hamohang bo'lgan qarashlarni himoya qiladi, u shuningdek, biz norozi bo'lgan qarashlarni ham himoya qiladi", deya qiziqarli fikrlarini aytib.



o'tgan. Akademik, yuridik fanlar doktori, professor A. Saidov "Konstitutsiya muhim siyosiy-huquqiy hujjat sifatida kishilik sivilizatsiyasining yutug'i, umuminsoniy qadriyat va demokratik taraqqiyotning yuridik asosidir", "Konstitutsiya bu dogma emas, u harakat uchun dastur bo'lishi kerak", "Konstitutsiya huquqiy bilimlarning alifbosidir", degan chuqur huquqiy falsafiy fikrlarni bayon etgan holda, mamlakatimiz Konstitutsiyasini o'rganish va bilish, unga rioya qilish va Asosiy qonunimiz bilan faxrlanishni albatta zarur deb hisoblaydi.

Yuqorida sanab o'tilgan konstitutsiyamizning afzalliklarini yoritib berish mumkin.

Birinchi afzalligi bu Konstitutsiya har bir fuqaroning hayot huquqi, erkinlik, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qiladi. Hech kimning huquqi sud qarorisiz cheklab bo'lmaydi. "Insonning huquq va erkinliklari davlat tomonidan tan olinadi, hurmat qilinadi va himoya qilinadi." (13-modda)

Ikkinchi afzalligi bu Barcha fuqarolar jinsi, tili, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat'iy nazar teng huquqlarga ega. "O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'iy nazar tengdir".

(18-modda)

Uchinchi afzalligi bu Fuqarolar ijtimoiy ta'minot, nafaqa, yordam puli, nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinadi. "Har kim qariganda, mehnat layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan mahrum bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan boshqa hollarda ijtimoiy ta'minot olish huquqiga ega". (39-modda)

To'rtinchi afzalligi bu Konstitutsiya har bir insonning bepul umumiy ta'lim, sifatli tibbiy yordam olish huquqini kafolatlaydi. "Har kim ta'lim olish huquqiga ega. Davlat bepul umumiy ta'limni kafolatlaydi". (41-modda)

Beshinchi afzalligi bu Fuqarolar o'z fikrini erkin bildirish, axborot olish huquqiga ega. Bu jamiyatda erkinlik va ochiqlikni kuchaytiradi. "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligiga ega. Har kim axborot izlash, olish va tarqatish huquqiga ega". (33-modda)

Konstitutsiyamizning ushbu afzalliklarni sanasak sanog'i yo'q, ammo bularni biz bilamizmi, moddalarga biz amal qilamizmi degan savol doim qiynab kelgan. Mening fikrimcha ushbu afzallikalarni hammamiz bilishimiz shart deb o'ylayman. Chunki insonlar o'z huquq va erkinliklarini bilmasa, ushbu mamlakat rivojlanishi qiyin bo'ladi yoki rivojlanmasligi ham mumkin. Shuning uchun biz konstitutsiyani hammaga ko'rsatish va eslatish uchun shahar ichida reklama va ko'rsatuvlarni ko'paytirib aholiga yetkazishimiz kerak. Qachonki inson o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilsagina, o'sha yurt farovon bo'lishi mumkin. Konstitutsiya va uning kafolatlagan huquqlari bo'yicha ta'lim va targ'ibot faoliyatini maktab va universitetlarda kuchaytirish ham muhimdir. Fuqarolar yoshligidan o'z huquqlari va majburiyatlarini bilib ulg'aysa, ular jamiyatda faollik ko'rsatadi, adolat va qonun ustuvorligini hurmat qiladi.

Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar va madaniy tadbirlar orqali ham Konstitutsiya afzalliklarini keng jamoatchilikka yetkazish mumkin. Har bir fuqaro o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilishi, ularni hurmat qilishi va amalda qo'llashi natijasida,



O'zbekiston yanada adolatli, demokratik va farovon davlatga aylanadi. Inson huquqlari va erkinliklarini targ'ib qilish — bu nafaqat davlatning, balki har birimizning ham mas'uliyati hisoblanadi.

Xulosa. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – bu xalqning milliy qadriyatlarini, demokratik tamoyillarni va inson huquqlari normalarini mujassamlashtirgan muhim huquqiy hujjatdir. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya fuqarolarning hayot huquqi, erkinlik, sha'ni va qadriyatini himoya qiladi, barcha shaxslar uchun tenglikni kafolatlaydi, ijtimoiy himoya va yordam tizimini mustahkamlaydi, bepul ta'lim va sifatli tibbiy xizmat olish huquqlarini ta'minlaydi hamda so'z va fikr erkinligini kafolatlaydi. Konstitutsiya fuqarolar uchun nafaqat huquqiy hujjat, balki jamiyatning barqarorligi va farovonligini ta'minlovchi asosdir. Insonlar o'z huquq va erkinliklarini bilib, ulardan samarali foydalanmasa, mamlakatning rivojlanishi qiyinlashadi. Shu sababli, Konstitutsiyaning afzalliklarini aholiga yetkazish, uni targ'ib qilish va eslatib turish muhimdir. Faqat insonlar o'z huquq va erkinliklarini yaxshi bilsa, yurtimiz farovon bo'lishi, jamiyatimiz barqaror va adolatli rivojlanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -Toshkent: O'zbekiston, 2023. – 80. b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.05.2023 yildagi PF-67-son., Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. <https://lex.uz/docs/-6461609>
3. O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 17.10.2024 yildagi O'RQ-976-son., Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida O'zbekiston Respublikasining Qonuni // <https://lex.uz/uz/docs/-7162473>
4. Konstitutsiya – xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsuli ilmiy maqola // <https://saylov.uz/public/oz/article/konstitutsiya-xalqimiz-tafakkuri-va-ijodining-mahsuli#!>

